

“TEXNOLOGIYA” FANIDAN AMALIY MASHG`ULOTLARDA ELEKTRON USLUBIY TA'MINOTI YORDAMIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Nizomiy nomidagi O'z.M.P.U dotsenti G'.Abduqodirov.

Nizomiy nomidagi O'z.M.P.U talabasi S.Tog'ayeva

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola –uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirishda, ta'lim oluvchilarga sifatli ta'lim xizmatlari va imkoniyatlarni oshirish, malakali kadrlar tayyorlashda, hamda yosh avlodni yuqori saviyada tayyorlashni ta'minlash maqsadida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlar bo'yicha elektron uslubiy majmua muhim ahamiyati haqida

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается важная роль электронных учебно-методических комплексов по профильным предметам в дальнейшем развитии системы непрерывного образования, повышении качества образовательных услуг и возможностей обучающихся, подготовке квалифицированных кадров, профессиональной подготовке будущих учителей технологий в целях обеспечения высокого уровня подготовки подрастающего поколения.

ANNOTATION

The article examines the important role of electronic educational and methodological complexes in specialized subjects in the further development of the continuing education system, improving the quality of educational services and opportunities for students, training qualified personnel, and professional training of future technology teachers in order to ensure a high level of training for the younger generation.

Muommoning qo'yilishi: Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirishda, ta'lim oluvchilarga sifatli ta'lim xizmatlari va imkoniyatlarni oshirish, malakali kadrlar tayyorlashda, hamda yosh avlodni yuqori saviyada tayyorlashni ta'minlash maqsadida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlar bo'yicha elektron uslubiy majmua muhim ahamiyatga ega.

Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan fan va madaniyat sohasini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini tubdan oshirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bilan elektron ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni dasturida hukumatimiz tomonidan ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor namunasidir. Shu boisdan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun dasturi talablarini amalga oshirishda, hamda yosh avlodni yuqori saviyada tayyorlashni ta'minlash maqsadida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlar bo'yicha elektron metodik majmua yaratish zaruriy masalalar qatoriga kiritilgan. 2002 yil 7-martda Oliy va o'rta maxsus ta'lim, xalq ta'limi vazirliklari hamda davlat matbuot qo'mitasining 71/22/44 sonli qo'shma buyrug'i bilan "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"da elektron metodik adabiyotlar yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, psixologikpedagogik va metodik talablarni ishlab chiqish, elektron metodik adabiyotlardan

to'g'ri va ratsional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakatimiz miqyosida zamonaviy elektron metodik majmualarini tayyorlash bo'yicha strategik masalalar ko'lamini aniqlash belgilangan. Shuning uchun bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxs qilib tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda elektron metodik majmualarning yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda. Bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib elektron metodik majmualardan ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda bir qator jarayonlarni bajarish kerak, jumladan, ta'lim sohasini tanlash va zarur muammolarni tahlil qilib, elektron metodik majmualarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqazo etmoqda.

"Texnologiya" fanining elektron metodik majmuasini yaratish va o'qitishda foydalanish muammosining asosiy qiyinchiligi, hozirga qadar bunday o'qitishning metodologik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidadir.

Muommoning dolzarbligi: Bajarilgan tadqiqod ishlarining aksariyatida talabalar tasavvurlarini yuqori darajada shakllantirish metodikasiga qaratilgan bo'lib, bu muammoni yechish yo'llaridan biri talabalarning tasavvur qilishi qiyin bo'lgan murakkab jarayonlarni o'rgatishda asosiy o'rinni egallagan g'oya va tushunchalarni shakllantirish uchun o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlarda animatsiya, turli xildagi taqdimotlar, video lavhalardan foydalanilmaganligi, mashg'ulotlarni bajarish jarayonida zamon talablariga mos innovatsion texnologiyalarni inobatga olinmaganligi, oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Texnologiya" fanining elektron metodik majmuasi asosida bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarining shu fan bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muommoning yechimi: Elektron metodik majmuada asbob va dastgohlar tasviri va chizmalari, mehnat faoliyati turlari, ish turlarini illyustratsiyalaydigan video lavhalar, mavzular bo'yicha testlar, lug'atlar, glossari, ishlab chiqarish jarayoni

animatsiyalari, multimediya tasvirlari, yog'ochga va metalga ishlov berishda tokarlik stanoklari, qo'l asboblari bilan ishlov berish, pardoqlash jarayonlari animatsiyalari nazariy ma'lumotlar vazifasini o'taydi.

Kerakli band ustiga sichqonchaning chap tugmasi bosiladi. Masalan, agar sichqonchani bosh sahifa ustiga keltirilib uning chap tugmasi bosilsa, u holda kompyuter ekranida "Texnologiya" fani bo'yicha maruza va amaliy mashg'ulotlar, slaydlar, video lavhalar, topshiriq va test materiallari oynasi paydo bo'ladi.



1-rasm. "Texnologiya" fani bo'yicha elektron metodik majmuasini loyihalash jarayonidan lavha.

Elektron metodik majmualarda mashg'ulotlarni bajarish orqali talabalar dastgohlarda bajariladigan amallar, elektrotexnika ishlari va avtomatika elementlarini o'rganishlari hamda qator amaliy ishlarni bajarishlari ham mumkin. Masalan, elektron metodik majmuada yo'riqnoma bo'yicha yog'ochga ishlov berish jarayonida uning nuqsonlari, namligi, zichligini; metallni kesib ishlov berish rejimlaridan kesish tezligi, surish qiymati va kesish chuqurligi bo'yicha ma'lum qiymatlar berilganda yuza g'adir-budirligini; polimer materiallar bilan ishlaganda qirqish, yelimlash, pardoqlash jarayonlarini; elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimini sxematik tasvirini tayyorlashning tahliliy ko'rinishlarini kattalashtirilgan tasvirlarda ko'rish mumkin. O'quv materialini idrok etish samaradorligini oshirish uchun esa mehnat ob'ektini yaxlit ko'rish va uning kichik detallari bilan tanishish imkonini beradigan maxsus texnologik metodlar, masalan, lupa yordamida Flash-animatsiyalashdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa: Elektron metodik majmua asosida o'qitish bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakillantirish imkoniyati va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

"Texnologiya" fani bo'yicha yaratilgan va o'qitishga tavsiya etilayotgan elektron metodik majmua kattagina ma'lumotlar bazasidan iborat bo'lib, bundan bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilari nazariy va amaliy mashg'ulotlardagi

nazariy tushinchalarga ega bo'lib kasbiy faoliyat jarayonida inovatsion shakillanish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Dars mashg'ulotlarida amaliy ishlar, jadvallar, videofilmlar, animatsiyalar va slaydlardan foydalanildi. Nazariy va amaliy dars mashg'ulotlari, video lavhalar, multimediya ko'rinishidagi ish jarayonlari, taqdimotlar, ispring dasturida ishlangan test materiallarini o'zida mujassamlashtirgan elektron metodik majmua ishlab chiqildi va bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini "Texnologiya" fani bo'yicha kasbiy tayyorlash jarayoniga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "2017-2021- yillarda o'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi". Toshkent. 2017-yil.
2. Uzlaksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. Toshkent. Sharq nashriyoti. 2002-yil. 176 b.
3. A.R.Zhuraev, Kh.B.Mukhamedova, F.N.Mirzhamolova, G.A.Mirzhamolova. Scientific methodological basis for coordination of labor education curriculum. "The Way of science" International scientific journal. № 6 (40) / 2017, Russia Volgograd. Pg, 70 – 72.
4. А.Р. Жураев, М.С. Аслонова, У.И. Бахранова. Методика использования электронных учебников в обучении направления "Технология и дизайн" предмета технологии. Проблемы педагогики" научно–методический журнал № 3 (35) / 2018 г. Россия, Москва. с 23 – 25.
5. G. Abdugadirov Vocational training practicum. T.: 2012.-260 p.
6. G. Anarkulova, G. Abdugadirov and others. Practicum of technological taste. Textbook T-2018
7. Sh. Sharipov, N. Muslimov. "Technical creativity and design". - T.: 2011.